

**TOSHKENT VILOYATI CHINOZ TUMANIDAGI SUG'ORISH  
USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.***Ikrom Raxmonov**GulDU Agrotuproqshunoslik va melioratsiya kafedrası dotsenti**Indira Turdaliyeva**GulDU Agranomiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Dunyoda hozirda ko'p mamlakatlar va xususan o'zimizning vatanimizda suvni tejash maqsadida tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish kabi sug'orish tizimlari keng targ'ib qilinmoqda. Bu tadbirlar albatta suv resurslarini tejash maqsadida amalga oshirilmoqda. Ushbu maqomalarda dunyo miqyosidagi va yurtimizdagi suv zahiralari va sug'orish tizimlari haqida aytilgan. Toshkent viloyati Chinoz tumanida qo'llanilayotgan sug'orish usullarlari va qishloq xo'jaligi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Chinoz, tomchilatib sug'orish, yomg'irlatib sug'orish, issiqxona.

**Аннотация:** В настоящее время во многих странах мира, включая нашу родину, активно пропагандируются такие системы орошения, как капельное и дождевальное, с целью экономии водных ресурсов. Эти меры направлены на рациональное использование водных ресурсов. В данной статье рассматриваются мировые и национальные водные ресурсы, а также системы орошения. Особое внимание уделено методам орошения, применяемым в Чиназском районе Ташкентской области, и их роли в сельском хозяйстве.

**Ключевые слова:** Чиназ, капельное орошение, дождевальное орошение, теплица.

**Annotation:** Currently, in many countries around the world, including our homeland, irrigation systems such as drip and sprinkler irrigation are widely promoted to conserve water resources. These measures are aimed at ensuring the efficient use of water resources. This article discusses global and national water resources and irrigation systems. Special attention is given to the irrigation methods used in the Chinoz district of Tashkent region and their role in agriculture.

**Keywords:** Chinaz, drip irrigation, sprinkler irrigation, greenhouse.

**Kirish:** Dunyo miqyosidan qaraydigan bo'lsak hozirgi kunda tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu tadbir anchagina suv resurslarimizni tejalishiga sabab bo'ladi. Dunyo miqyosi bo'yicha jami km.kub

tashkil

2-rasm


1-rasm. Dunyo chuchuk suvlari zahiralari va ularning tarkibi.(chapda)

2-rasm. O'zbekiston miqyosida ishlatilayotgan suvlarni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi.

O'zbekiston miqyosida ishlatilayotgan suvlarni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi O'zbekiston miqyosida suvlarning asosiy

suv resurslari 345000000

qismi



1-rasm

qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan ishlatiladi (88-92%). Keyingi asosiy suv ishlatuvchisi maishiy ro'zg'or xo'jaligi (5,5%) bo'lsa, undan keyinda sanoat ishlab chiqarishi turadi(1,5%)

Ekinlarni sug'orishning bosimli suv tejavchi usullari:Tomchilatib sug'orish- ekinga suv sug'orish shlanglari yordamida kam miqdorida tomchi ko'rinishida tez-tez beriladi.



3-rasm. Yomg'irlatib sug'orish

4-rasm. tomchilatib sug'orish

Zamonaviy tomchilatib sug'orish 1930 yilda impulsli purkagich ixtiro qilinganidan beri qishloq xo'jaligida ilg'ortehnologiyalar sifatida tan olingan.

Bu yer usti sug'orishga birinchi alternativ, madaniy ekinlarni endi qurg'oqchil iqlim sharoitida o'sishi mumkin, buni tomchilatib sug'orishsiz amalga oshirish mumkin emas edi. Bizning mamlakatimizda Quyi bo'g'inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvar, PQ-5-sonli qarori qabul qilindi. Unda Quyidagilar Suv yetkazib berish xizmatlarining asosiy vazifalari etib belgilab berildi:

- belgilangan limitlar asosida iste'molchilarga suv yetkazib berish;
- o'ziga birlashtirilgan hududda suvning hisobi va hisobotini yuritish;
- sug'orish tarmoqlari va ulardagi gidrotexnik inshootlarni soz holatda saqlash, ta'mirlash-tiklash tadbirlarini amalga oshirish;
- suv olish joylarini suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlash, suv monitoringi, hisobi va hisoboti yuritilishini raqamlashtirish;
- iste'molchilar kesimida iste'mol qilingan suv hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlariga taqdim etib borish;
- suv iste'molchilarining buyurtmanomasi asosida boshqa suv xo'jaligi xizmatlarini ko'rsatish.

Quyidagicha tartiblar ham belgilab berildi:

**a) 2024-yildan boshlab:**

Suv xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda har yili 25-martga qadar vegetatsiya davri uchun va 25-sentabrga qadar kuz-qish davri uchun suv manbalarining suvlilik darajasidan kelib chiqqan holda hududlar kesimida qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun suv olish limitlarini tasdiqlaydi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari hamda hududiy qishloq xo'jaligi boshqarmalari har yili 1-aprelga qadar vegetatsiya davri uchun va 1-oktabrga qadar kuz-qish davri uchun yakuniy iste'molchilar kesimida ekinlarni sug'orish uchun suv olish limitlarini hududlar bo'yicha tasdiqlangan limit doirasida ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun xalq deputatlari tuman Kengashlariga kiritadi;

iste'mol qilingan suv miqdori hisobini yuritmagan (yuritishdan bosh tortgan) qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari uchun suv solig'i bazasi xalq deputatlari tuman Kengashlari tomonidan tasdiqlangan limitlarga nisbatan ikki barobar oshirilgan holda hisoblanadi;

**b) 2025-yildan boshlab:**

suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari joriy qilinganda hamda sug'orish uchun olingan suv hajmi suv o'lchash uskunalari asosida aniqlanganda

suv solig‘i stavkasiga 0,5 kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llaniladi;

suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilinganda yoki sug‘orish uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanganda suv solig‘i stavkasiga 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyent qo‘llaniladi;

baliqchilik uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanganda suv solig‘i stavkasiga 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyent, qo‘llaniladi;

suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilinmaganda hamda sug‘orish uchun olingan suv hajmi suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanmaganda suv solig‘i stavkasiga 1,5 oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llaniladi.

Yuqoridagi qarordan shuni xulosa qilish mumkiki Suvdan rejali va tejab foydalanish kelgusida suv muammosini yumshatuvchi asosiy yechimlardan biri bo‘lib qolaveradi.

Xususan Toshkent viloyati Chinoz tumanida 2021-yildan tomchilatib sug‘orish tizimi yo‘lga qo‘yilishni boshladi. Dala ekin maydonlarida ayniqsa g‘o‘za ekilgan maydonlarda bu usuldan keng foydalanilmoqda. Plyonka suvni ortiqcha bug‘latmaslik uchun qo‘yiladi. Paxtadan ko‘proq hosil olish maqsadida Xitoy, Hindiston, Turkiyadan chigit olib kelinib ekilmoqda. Buning sababi bu davlatlardan olib kelinayotgan chigitlardan olingan hosil ko‘proq va har qanday kasalikka bardoshli. Chinozda ham shunday chigitlar ekilmoqda. Asosan tomchilatib sug‘orish tizimi Chinozda issiqxonalarda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Bundan tashqari zamonaviy issiqxonalarda gidroponika usulidan ham foydalanilyapti.

Ma‘lumot o‘rnida shuni aytib o‘tisak Chinoz tumani - Toshkent viloyatidagi tuman. 1935-yil 9-fevralda tashkil etilgan. 1962-yil 24-dekabrda Yangiyo‘l tumaniga qo‘shilgan. 1973-yil 12-aprelda qayta tuzilgan. Shimoliy va shim.sharqdan Yangiyo‘l, sharq va jan.sharqdan Quyi Chirchiq tumanlari, janub va g‘arbdan Sirdaryo, shim.g‘arbdan Qozog‘iston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 0,34 ming km<sup>2</sup>. 2024- yilning yanvar - sentabr oylarida Chinoz tumanida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 30 857,0 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,31 % ni tashkil etdi.

Ayrim turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi quyidagicha:

Donli ekinlar - 49 035 tonna

Kartoshka - 16 945 tonna

Sabzavotlar - 66 152 tonna

Go‘sht - 10 817 tonna

Sut - 48 765 tonna

Tuxum - 39 340 ming dona

Baliq - 311 tonna

Ushbu mahsulotlar yetishtirilish va ularning tannarxini arzonlashtirishda qanchalik darajada suv zarurligi va shundan kelib chiqqan holda suvdan qanchalik darajada tejamkorlik bilan foydalanishimiz zarurligini ko'rinib turibdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-son qarori.
2. Mamatov S.A. Tomchilatib sug'orish tizimi; Toshkent-2012 yil.
3. Yusufkhonov, Z., Ravshanov, M., Kamolov, A., & Kamalova, E. (2021, April). Improving the position of the logistics performance index of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 264, p. 05028).
4. <http://agrostimul.com.ua>